



## POLIZ EKINLARI ZARARKUNANDALARI (INSECTA) TARQALISHI, BIOEKOLOGIYASI

**Almatova Dilafruz Abdujabbor qizi**  
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*  
**Abdikaxarov Bekzod Dilmurod o'g'li**  
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasi jaxon iqtisodiy inqirozidan chiqish davrida barcha yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini jahon bozor talablariga javob beradigan darajada sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishini taqazo etadi. Endilikda qishloq xo'jaligining barcha sohalarida islohotlar o'tkazilib mamalakatimizning oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.*

*Mazkur ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda poliz zararkunandalari hamda boshqa zararkunanada hasharotlar misolida bioxilma-xillikning taqsimlanishi, ma'lum bir o'simliklarda zararkunandalarning ko'payishi va zarari tushuntiriladi.*

*Poliz ekinlari orasida zararkunandalarning yangi turini aniqlanishi, ayrim turlarning ilgari ma'lum bo'lmagan morfalarini topilishi va tasniflanishi, ba'zi o'simliklarni zararkunandalarning yangi ozuqa o'simliklari sifatida ko'rsatilishi, bu hasharotlarning xududiy turlar tarkibini berilishi va boshqa qator izlanishlar faunistik tadqiqotlarni rivojlanishiga ma'lum xissa qo'shadi.*

*Mazkur tadqiqot natijalari poliz ekinlarida zararkunandalik qiluvchi hasharotlarning faunasi, biologiyasi va ekologiyasiga oid ilmiy dalillar ko'lamini yanada kengayishiga ma'lum xissa bo'lib qo'shilishi mumkin.*

**Abstract:** *During the recovery from the global economic crisis, the Republic of Uzbekistan ensures that all cultivated agricultural products have quality indicators that meet the requirements of the world market. Now reforms are being carried out in all areas of agriculture and a number of works are being carried out to ensure the food security of our country.*

*The theoretical importance of this work is that it explains the distribution of biodiversity, the reproduction and damage of pests in certain plants, using the example of polyps and other pests.*

*Identification of a new type of pest among polyps crops, discovery and classification of previously unknown morphs of some species, identification of pests of some plants as new food plants, distribution of regional species composition of these insects, and a number of other faunistic researches makes a certain contribution to the development of research.*

*The results of this research can be added as a certain contribution to the further expansion of the scope of scientific evidence on the fauna, biology, and ecology of insects that are pests of sugarcane crops.*



**Kalit so'zlari:** Qishloq xo'jaligi zararkunandalari, trips, Elatyeridae oilasi, poliz qo'ng'izi, simqurt, kemiruvchi hasharotlar.

O'zbekistonning madaniy senozlarida uchrovchi zararkunanda oganizmlarning ilk ro'yxati V.V.Yaxontov tomonidan tuzilgan. Muallifning keyingi ishlarida zararkunandalarga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Uning "O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi zararkunandalari" fundamental asarida Elatyeridae oilasiga mansub qo'ng'iz lichinkalarining zarari, tarqalishi, ta'rifi, hayot kechirishi va ularga qarshi kurash choralari ilk marta, bir muncha batafsil bayon etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, *Agriotes meticulosus* Cand. turi O'rta Osiyodan tashqari Kavkaz orti, eron, Afg'oniston, Mongoliya va Xitoyda keng tarqalgan (Glushenkov,1951; Xojayev,2014; Yaxontov,1962).

Kemiruchi hasharotlar zarar keltirish xususiyatlarining keng qamrovli o'rganilishi V.V.Yaxontov (1962) faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik turlarga umumiy, sistematik, taksonomik va morfologik ta'rif berilgan hamda ularning biologiyasi, zarar keltirish xususiyatlari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan olib borilgan izlanishlarda ko'proq O'rta Osiyo zararkunanda kemiruchilariga e'tibor berilgan, shuningdek, ularga qarshi kimyoviy kurash usullari tavsiya etilgan (Yaxontov, 1962). Shuningdek, muallifning ishlarida epilyaxna (*Epilachna chrysomelina* F.), asosan, poliz qo'ng'izi deb nomlangan bo'lsa (Yaxontov, 1962), boshqa mualliflar tadqiqot natijalarida esa poliz kekinagi tarzida nomlanib kelingan (Arseneva, Gruzdev, 1978).

"Bog', tokzor va sabzavot-poliz ekinlarini zararkunanda hamda kasalliklardan himoya qilishga oid spravochnik"da poliz ekinlarida jiddiy zararkunandalik qiluvchi buzoqboshilarning bir necha turlari, simqurtlar hamda ayrim qo'ng'izlarning zarariga oid ma'lumotlar V.Z.Pashenko va boshqalarning ishlarida keltirilgan (Pashenko va boshqalar, 1962).

M.V.Arseneva va G.S.Gruzdevlarning (1978) "O'simliklarni himoya qilish" nomli qo'llanmasida poliz ekinlari zararkunandalarining tarqalishi hamda ularga qarshi kurash choralari bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, bu hasharotlarning morfologiyasi hamda hayot kechirishiga doir umumiy ma'lumotlar ham keltirilgan (Arseneva, Gruzdev, 1978). Mualliflar poliz kekinagi (epilyaxna) Tojikiston, Turkmaniston va Kavkazda yetishtiriladigan poliz ekinlariga jiddiy zarar ko'rsatishini bayon etgan.

Boshqa bir qator olimlarning ishlarida ham qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlash, zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan tadqiqot natijalari ham bir muncha ifodalangan (Nazarov, Ahmedov, Hakimov, 2000; Migulin va boshq., 1983).

Jahon entomologik tadqiqotlari natijalarida poliz zararkunandalariga doir ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, quyruqli buzoqboshining tarqalishi, zarari va biologiyasiga doir ma'lumotlar, shuningdek *Epilachna chrysomelina* Janubiy Evropa, Afrika, Kichik va Old Osiyo, Afg'oniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, O'zbekiston va



Tojikiston hududlarida jiddiy zararkunanda sifatida ko'payib borayotganligi qayd etilgan (Ataeva, 1972; Vinogradova, 1950; Glushenkov, 1951; Igamberdiev, 1966, 1967; Krijanovskiy, 1982; Polyakov, Kopaneva, Doroxova, 1982; Tilavov, 1985). Boshqa tadqiqotchilar tomonidan *Gryllotalpa unispina* ning sistematik o'rni, biologiyasi, ekologiyasi va zarar keltirishiga doir manbalar yoritilgan. Shuningdek, chigirtkalarining turli vakillari (*Calliptamus italicus*, *Dociostaurus maroccanus*) ekinlarga jiddiy zarar keltirishiga doir bir qator ilmiy ma'lumotlar ko'pchilik saytlardan o'rin olgan.

Q.X.Xushvaqto'v (1994) takidlashicha g'o'za shonalash davrida trips bilan kuchli zararlanadi, "ayri" shoxlar xosil bo'ladi barglar teshilib bo'jmayadi natijada 4,2 s/ga xosil yo'qotiladi. Bizga ma'lumki tripsni zararlilik darajasini hisobga olish, boshqa zararkunandalarga qaraganda ancha qiyinroqdir. Tripsni zararlilik darajasi ularni o'simlikdagi olib borilgan oxirigi natijasi yani g'o'za xosili yo'qotilganligi bilan aniqlanadi. Xozirgi vaqitda O'zbekiston sharoitida tripsni zararlilik iqtisodiy chegarasi (ZICH) o'simlik 2-balli shkalada zararlanish qabul qilingan. Shuning uchun tripsni zararlilik darajasini hisobga olmasak ular o'simlikni qattiq zararlashi mumkin. Trips bilan zararlangan o'simliklar bahorda o'sish rivojlanishidan to'xtaydi barglar bo'jmayib ayri shoxlar hosil bo'ladi(Xojayev,2009).

Kemiruvchi hasharotlarning O'zbekiston sharoitida tarqalishi, biologiyasi va zarariga doir bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, M.H.Ahmedov va boshqalar tomonidan simqurtlarning biologiyasi, tarqalishi va zarar keltirishiga doir ayrim ma'lumotlar berilgan (Ahmedov, Xudoyberdiev, 1996; Ahmedov, Axmadjonova, 2003, 2006; Axmadjonova, 2002, 2007).

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash mumkinki, Farg'ona viloyati sharoitidada poliz ekinlari kemiruvchi hasharotlarining biologiyasi, ekologiyasi va zarar keltirish xususiyatlariga doir rejali tadqiqotlar olib borilmagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo'jaev SH.T.. "O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari." Toshkent-2014. 225-bet
2. Sh.T.Xo'jaev, E.A.Xolmuradov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent "Fan" nashriyoti-2009 y.
3. Chirkov V.N. O'simlikshunoslikdan praktikum. -Toshkent, 1976.
4. Yaxontov V.V, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. -Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1962. - 696 b.
5. G'opporov F.A. O'zbekiston hududlarida to'g'ri qanotlilar turkumiga kiruvchi chigirtka va chigirtkasimonlarning rivojlanishi, yoppasiga ko'payish sabablari, zamonaviy kurash choralari. -Toshkent, 2008. -74 b.



6. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxati.

7. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent, Davlat kimyo komissiyasi.

8. Jago N.D. 1963. A revision of the genus *Calliptamus* Serville (Orthoptera: Acrididae). Bull. British Mus. (Nat. Hist.), Entomology (London) 13: 289-359.

9. Jeffrey N.L. *Hypnoidus riparius* (F.), a possible agricultural pest from Europe // Proc. Entomol. Soc. of Washington. 1969. 71, 2: 191-193.

10. [http://www.agroatlas.ru/ru/content/pests/Epilachna\\_chrysomelina/](http://www.agroatlas.ru/ru/content/pests/Epilachna_chrysomelina/),

11. <http://www.cababstractsplus.org/DMPP/Reviews.asp?action=display&openMenu=relatedItems&ReviewID=13023>,

<http://www.cababstractsplus.org/dmpp/Reviews.asp?action=display&openMenu=relatedItems&ReviewID=13023&Year=1980>